

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10801705>

## ONA TILIDAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI NAZORAT QILISH

**Yashinova Shahzoda To'liq qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

[samsbrt@gmail.com](mailto:samsbrt@gmail.com)

**M.A.Hamrayev**

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida professori v.b. filologiya fanlari nomzodi

[m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish borasidagi bilimlar yoritib berilgan. Bilimlarni o'zlashtirishda didaktik talablardan biri bilimlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganini tekshirib va baholab borish mavzusiga bag'ishlangan.*

***Kalit so'zlar:** Bilim, ko'nikma, malaka, o'quvchilar bilimini shakllantirish, maktab tajribasi, og'zaki va yozma shakllar.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье выделены знания, контроль знаний и умений. Одно из дидактических требований при овладении знаниями посвящено теме проверки и оценки того, как учащиеся усвоили знания.*

*Ключевые слова: Знания, знания, умения, формирование знаний учащихся, школьный опыт, устная и письменная формы.*

### ANNOTATION

*This article highlights knowledge, control of knowledge and umeniy. One of the didactic requirements for mastering knowledge is devoted to the topic of checking and assessing how students have mastered knowledge.*

*Kew words: Knowledge, knowledge, skills, formation of students' knowledge, school experience, oral and written forms.*

Bilimlarni o'zlashtirishda didaktik talablardan biri bilimlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirganini muntazam tekshirish va baholab borish hisoblanadi.

Tekshirish o'quvchilarning bilim sifatlarini, shakllantirilgan malakalardan qanchalik foydalanilishini aniqlashni ta'minlaydi. Malaka – O'zbekiston Respublikasi „Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida mazkur tushunchaga quyidagi ta'rif berilgan: „shaxs kasbiy faoliyatining muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasqidlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalari darajasidir"(3- modda).

Tekshirish o'quvchilar uchun, birinchidan, to'g'ri shakllantirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, ikkinchidan, ish sifatini yaxshilaydi, o'z-o'zini tekshirishni o'stiradi.

Maktab tajribasida tekshirish o'g'zaki va yozma shaklda amalga oshiriladi; bilimlarni kundalik mavzuga oid va yakuniy tekshirish tatbiq etiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan bilim, ko'nikma, malakalar og'zaki va yozma shaklda tekshirilsa-da, bir umumiy baho qo'yiladi

**Ko'nikma** - insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir.

**Bilim** - kishilarning tabiat, jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma'lumotlar; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Bilim darajasiga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlardan biri bo'lishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarimizning voqelikka mutanosibli; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim.

Bunda o'quvchilarning grammatik aniqlik, imlo qoidalarini bilishlari, so'zni va gapni tahlil qila olishlari, bilimni yozma nutqqa (diktant, bayon, inshoga) tatbiq eta olishlari hisobga olinadi. Ona tilidan yozma tekshirish uchun asosan diktant, bayon, insho, shuningdek, grammatik so'z yasashga oid, leksik va imloga oid topshiriqlarni bajarish, tekshiruv ko'chirib yozishdan foydalaniladi. Yakunlovchi tekshirish uchun har bir chorakda bir marta tekshiruv ishi o'tkaziladi. Bulardan tashqari, o'quv yili davomida bir necha martadan diktant, grammatik topshiriqli yozma ishlar, test, bayon va insho o'tkaziladi.

Xulosa: Ona tildan bilim, ko'nikma, malakalarni nazorat qilishda avvalo bu tushunchalarni bilib olish talab etiladi. Bilimlarni mustahkamlab ularni amalda tadbiq eta olish qobiliyatini shakllantiradi. Har bir o'quvchida bilim bo'lishi mumkin ammo uni har bir o'quvchi ham amalda qo'llay olmaydi. Bilimlarni amalda qo'llay olish uchun avvalo ularda malaka va ko'nikma bo'lishi kerak. Shu uchun ham bu uchchala tushunchani birga qo'llaymiz. Ular bir- birisiz shakllana olmaydi. Ya'ni bir-birini to'ldirib turadigan tushunchalar sirasiga kiradi. Ona tili darslarida o'rgangan bilimlarni ham malaka va ko'nikma bilan qo'llay olish bu darsni yaxshi o'zlashtirganliklaridan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova, Qosimova, Safo, Matchonov, Xolida, G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev, Ona tili o'qitish metodikasi" - Toshkent 2009. 297-298- betlar
2. R. Movlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulov, „Pedagogika nazariyasi va tarixi“ kitobi -: Toshkent 2010
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari.- Toshkent. :, O'qituvchi" 1992.